

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TABIAT
BILAN TANISHTIRISHDA MUTAFAKKIRLAR MEROSIDAN
FOYDALANISH**

Norboboyeva Shoxista Rahmatilla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Alimardanova Mutabar

Ilmiy rahbar: Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiatimizni o'rganilish tarixidan asosiy manbalar, ajdodlarimiz merosi, tabiatning ta'lim va tarbiya jarayoniga ta'siri, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatni tanishtirish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy o'quv dasturi, Avesto, globus, yil fasllari, o'simliklar.

Boshlang'ich sinf davri bilimlar poydevoridir. 2020- yilda qabul qilingan milliy o'quv dasturida xalqaro andozalarga xos ravishda tabiiy fan (science fan) boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'tilishi rejalashtirildi. Avvalgi dasturdan farqli ravishda tabiiy fan o'z ichiga biologiya, kimyo, fizika va geografiya fanlarini qamrab oladi. Hamda yuqoridagi fanlarga chuqurroq kirib borilganligi bilan muhimdir. Dars jarayonida laboratoriya mashg'ulotlari orqali o'quvchilarni bu fanga qiziqtirish mumkin.

Tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj ilk ibtidoiy odamlar yashagan davridayoq paydo bo'lgan. Ilk yozma manba bundan 3000 yil avval yaratilgan Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestodir. Avesto nafaqat diniy kitob, balki o'sha davr ilmfani - tabiiy fan, astronomiya, geografiya, tarix, falsafa, qishloq xo'jaligi haqidagi ilmlar majmuasidir.

Avestoda borliq -olam to'rt unsur: suv, tuproq, havo va olovdan iboratligi haqida aytilgan. Hamda ular haqida ma'lumot berilgan. Inson tanasi qismlari, nerv faoliyati haqida ma'lumotlar mavjud. Tabiiy fanlar rivojiga katta hissa qo'shgan yana bir asar bobokalonimiz Zahiriddin Muxammad Boburning memuar asari "Boburnoma" dir. Bu asar O'zbekiston, Kobul, Hindiston hududlarining iqlimi, tabiati, geografiyasi, zoologiyasi, botanikasi, tarixi haqida beqiyos manbadir. Bobur bobomiz o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, yil fasllari almashinuvi, jumladan, Hindistonda uchta fasl almashinishi, har bir fasl to'rt oydan iboratligi haqida yozgan.

Tabiiy fanlarning o'rganilishini yunon olimlari boshlab bergan. Bu esa Fales nomi bilan bog'liq. Ilk yunon olimi hisoblangan Fales (mil . Avv 625-547) tabiat qonunlarini tushunish rivojida o'zining 4 qarashini yozib qoldirgan.

1. Hamma narsa suvdan paydo bo'lgan.
2. Yer suvda suzib yuradi.
3. Jon bor, u temirni harakatga keltiradi.
4. Koinotda juda ko'plab xudolar mavjud.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga buni tushuntirishda inson organizmining ham 60 foizi suvdan iboratligi, hattoki suyaklarning ham 25 foizi, miyaning 85 foizi, qonning 80 foizi suvdan tashkil topganligini qiziqarli ravishda tushuntirish lozim. Tabiiy fanlar rivojlanishida muhim qadam O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy izlanishlari edi. Abu Rayxon Beruniy bobomiz yerning shar shaklida ekanligini isbotladi va globusni yaratdi. " Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", " Hindiston", " Geodeziya", " Mineralogiya", " Saydona" kabi mashhur asarlar meros qilib qoldirgan.

" Yer dumaloq, biz mashriqda bo'lsak, mag'ribda ham yer o'qidan chiqib ketmasligi uchun yana quruqlik bo'lishi kerak", " Dengizlar quruqlikka, quruqliklar esa dengizga aylanadi" kabi nazariyalar o'z isbotini topgan.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino tabiiy fanlarda ilmiy faoliyat olib borib 450 dan ortiq asar yozgan, biroq ulardan 160 tasi bizgacha yetib kelgan. Mashhur asari " Tib qonunlari" kitobi bugungi meditsina rivojiga ulkan o'ringa ega. 22 jildlik " Kitob ush- shifo", 20 jildlik " kitob ul - insof", " kitob un- najot" asari esa 4 qismdan iboratdir.

Pedagogika ilmining paydo bo'lishi va rivojlanishida xizmat qilgan olim Yan Amos Komenskiy ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda barcha bosqichlarni tabiat bilan bog'lashga urg'u bergan. Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga qiyoslagan.

" Onalar maktabi" gul, o'simliklar, yashillikka burkangan bahor fasliga o'xshaydi. " Ona tili maktabi" mevalar erta pishgan yoz fasliga, " gimnaziya" mo'l hosilni yig'ib olgan kuz fasliga o'xshaydi. " Akademiya" esa qish fasliga qiyoslanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishimiz kerak. Koinot haqidagi mavzuda darsni qiziqarli teatr singari sahnalashtirishimiz mumkin. Bir o'quvchini quyosh, birini oy, boshqalarini sayyoralar, meteorit lar vazifasida joylashtiramiz. Ularning ta' rifi, sayyoralarning nomi, shakli, vazifasi, xususiyatlari haqida avval o'zimiz, keyin o'quvchilarning o'zlari tushunchalarini aytib berishadi. 1-2- sinf o'quvchilari uchun fasllarni tanishtirishda " Venn diagrammasidan " foydalanamiz. Yoz va bahor fasllari aynan qaysi jihatlari bilan bir - biriga o'xshash yoki farqli jihatlarni yozishini topshiriq beramiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, ularda tabiatni asrash, musaffo havomizning bugungi zamonda xavf ostida turganligi, tabiat bu biz uchun Olloh tomonidan berilgan buyuk ne' mat va balki omonat ham ekanligini aytishimiz kerak. Uni asrash, avlodlarga bezavol qoldirish uchun bugun bosh qotirmasak, ogoh bo'lmasak ertaga javob berishimiz muqarrar ekanligini uqtirish joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi" Yormatova Dilorom
" Aloqachi" nashriyoti
2. Tabiatshunoslik. 3- sinf darslik
3. Ziya.net.uz

